

MAHALLA - XALQ VA DAVLAT O'RTASIDAGI ISHONCH KO'PRIGI SIFATIDA

Botir Uzokov

Jizzax politexnika instituti "Ijtimoiy fanlar" kafedrasi dotsenti

E-mail: botiruzokov1957@mail.ru

Z.Xidoyatov

Jizzax politexnika instituti 402-21 EE guruhi talabasi

Annotatsiya: Maqolada mahalla tushunchasi, uning mazmun-mohiyati, nufuzi, xalq bilan davlat o'rtasidagi ishonch ko'prigi ekanligi, insonni jamiyatning bir qismi bo'lishga o'rgatadigan, uni bag'rikenglik va xalqparvarlik ruhida tarbiyalaydigan makonligini, Yangi O'zbekistonni va uchinchi Renessansning tamal toshini barpo etishda mahalla va uning ettitaligining o'rni va roli ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Mahalla, mahalla ettiligi, nufuzi, xalq va davlat, Yangi O'zbekiston, Taraqqiyot strategiyasi, bag'rikenglik va xalqparvarlik, inson sha'ni va qadri, oila tinchligi, farzandlar tarbiyasi, milliy urf-odat va an'analar.

Insoniyat yaralibdiki, uning ma'naviy yuksalishiga beshik bo'lgan, tarixi bir necha ming yillik tarixga borib taqaladigan, dunyoning barcha taraqqiyot bosqichlariga guvoh bo'lgan, bag'rida ham olis o'tmish, ham bugungi tamaddun jarayonlarini namoyon etuvchi bir maskan borki, bu mahalladir.

Mahalla – xalq bilan davlat o'rtasidagi ishonch ko'prigi bo'lib, insonni jamiyatning bir qismi bo'lishga o'rgatadigan, uni bag'rikenglik va xalqparvarlik ruhida tarbiyalaydigan makondir. YUrtimizda mahallalar juda ko'p bo'lib, ularning o'ziga xos nomlari bizga tarixdan so'zlaydi. CHunki ularda xalqimizning uzoq va shonli tarixi, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hayoti, madaniy merosi aks etadi.

Mahalla atamasi arabcha so'zdan olingan bo'lib, joy, o'rin, makon kabi ma'nolarni anglatadi va unga –shaharning ma'lum bir hududini o'z ichiga olgan, aholisi bir jamoaga birlashgan, o'zini-o'zi boshqarishga asoslangan ijtimoiy-hududiy bo'lagi deb ta'rif berish mumkin. SHu jihatdan olganda, mahalla - asrlar osha milliy urf-odat va an'alarimizni bezavol saqlab, xalqimiz uchun ezgulik va tarbiya beshigi, yaxshi qo'shnichilik va hamjihatlik maskani bo'lib kelmoqda.

Mustaqillik tufayli mamlakatimiz tarixida birinchi marta "mahalla" tushunchasi Konstitutsiyamizga kiritilib, Yangi O'zbekistonni barpo etish, Uchinchi Renessans tamal toshini qo'yish, uning jamiyat boshqaruvidagi o'rni va maqomi qat'iy

belgilab qo'yildi[1]. Mana shunday buyuk qadriyatlar maskani bo'lmish mahallalarga e'tibor davlatimiz rahbari tomonidan kun tartibiga qo'yilgan. SHarqqa xos madaniyatni o'zida jamlagan mahallalarimiz nufuzini oshirish, mahalla orqali yurtimiz rivoji uchun xizmat qilish burchimizdir. Prezidentimiz o'z nutqlarida "Biz faoliyatimizning birinchi kunlaridan hamma ishni mahallada, xalqimiz bilan birgalikda tashkil qilib kelyapmiz. Bu tizimni bosqichma-bosqich rivojlantirdik. Endi yana qo'shimcha kuch, imkoniyatlar berilyapti. Bu ham vakolat, ham mas'uliyat degani. Mahallalar – davlatimizning eng katta zamini" deb ta'kidlaganlari ham bejizga emas. Chunki mahallalar tom ma'noda xalqning dardini engil qiluvchi, ularning ishonchli makoniga aylanmoqda.

2023 yil 26 sentyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoyev tomonidan mahallabay ishlash tizimini yanada kuchaytirish, mahalla "ettiligi" faoliyatini yo'lga qo'yish bo'yicha o'tkazilgan yig'ilishda mahallalarni qo'llab - quvvatlashni yanada takomillashtirish, mahallabay ishlashga mas'ul bo'lgan shaxslar faoliyatini samarali tashkil etish va ularning hamkorligini ta'minlash hamda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini yurgizish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, ularga qonunda belgilangan vakolatlarini amalga oshirishda ko'maklashish vazifalar belgilangan edi.

Mazkur vazifalar ijrosini ta'minlash uchun mahalla boshqaruv tizimini takomillashtirish va mahalla "ettiligi" faoliyatini yo'lga qo'yish bo'yicha Prezidentimizning 2023 yil 21 dekabrda "Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo'g'in sifatida ishlashini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoniga ko'ra, mahalla obodligini ta'minlash, "Obod mahalla", "Obod ko'cha", "Obod xonadon" mezonlarini joriy etishda aholining faol ishtiroki va mas'uliyatini oshirish choralarini ko'rish, mahallalardagi muammolarning o'z vaqtida va samarali echilishida davlat organlari va tashkilotlarining mahallalardagi vakillarining sa'y-harakatlarini birlashtirish, muvofiqlashtirish va yo'naltirish, mahallaning moliyaviy imkoniyatlarini oshirish, kambag'al oilalarga ajratilayotgan byudjet mablag'lari va boshqa mablag'larning maqsadli va manzilli yo'naltirilishini ta'minlash, mahallalarning moddiy-texnika ta'minotini yaxshilash, ularga ajratiladigan mablag'larni markazlashgan tarzda taqsimlash, sohaga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, mahalla mas'ullarining malakasini oshirish, ularda zamonaviy boshqaruv ko'nikmalari shakllanishiga ko'maklashish vazifalari belgilab berilganligi ta'kidlandi.[2].

Albatta, bu kabi aniq qo‘yilgan maqsad va vazifalar o‘z natijasini beradi. Chunki xalqimiz ishonadigan va suyanadigan eng birinchi maskan bu – mahalladir. Shu boisdan, ham xalqimizga yanada ko‘proq xizmat qilish uchun mahalla xodimlari soni endilikda “beshlik” emas, “ettilik” tizimiga o‘tkazildi. Yangidan tashkil qilinayotgan bu tizimdagi ijtimoiy xodimning vazifasi og‘ir ahvolga tushib qolgan yoki shu ahvolga tushish ehtimoli bo‘lgan fuqarolar hamda oilalar bilan ishlaydi, ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ularga kompleks yondashuv asosida professional ijtimoiy xizmat ko‘rsatishni tashkil qiladi. Soliq inspektori esa, soliq bilan bog‘liq bo‘lgan mahalla ishlarini yuritishda faol bo‘ladi, tadbirkorlarga soliq xizmatlarini ko‘rsatish ishlari bilan shug‘ullanadi. Demak, qabul qilinayotgan qaror yoki farmonlarning tub mohiyati xalqimizning yaxshi sharoitlarda yashashi, har bir insonning rivojlanishi uchun foydali bo‘lishga qaratilgandir.

Zero, muhtaram YUrtboshimiz ta’kidlaganlaridek: “Zamon shiddat bilan o‘zgaryapti. Mahallani joylarda muammolarni chinakam hal qiladigan institutga aylantirishimiz zarur. Yana tajriba orttiramiz, yana o‘zgartiramiz. Hayot bizni shunga majbur qilyapti. Hozirgi tahlikalarga echim topamiz desak, bizning yagona yo‘limiz – mahalla, mahalla, mahalla va yana bir marta mahalla. Mahalla tizimi obro‘yini qancha ko‘tarsak, odamlar ishonadi, odamlar bizdan rozi bo‘ladi”[3].

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qarang. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent.: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2023.
2. Qarang. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 21.12.2023yil, PF – 209- son.
3. Qarang. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoev tomonidan 2023 yil 26 sentyabrda bo‘lib o‘tgan yig‘ilishdagi nutqi. <https://www.gazeta.uz>.
4. Abdurashidovich, T. M., & Botir, U. (2020). YOUTH EDUCATION IS A KEY FACTOR OF THE COUNTRY'S WELL-BEING. *International Journal of Discourse on Innovation, Integration and Education*, 1(5), 338-342.
5. Botir, U., & Ibodullaevich, K. K. (2022). Causes of Corruption, Socio-Political Consequences. *Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences*, 8, 37-40.
6. UZOQOV, A. Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi xalqlari adabiyoti. Toshkent–2007.–100 b.
7. Uzokov, B., & Mahmudova, U. (2024). JADIDLAR MEROSI VA JADIDCHILIK HARAkatIGA YANGICHA YONDASHUV–DAVR TALABI. *INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, 4(37), 254-257.

8. UZOQOV, B. (2023). BUNYODKORLIK, YARATUVCHANLIK, HAR DOIM O'QISH VA IZLANISHDA MUJASSAMDIR. *Luchshie intellektualnye issledovaniya*, 11(5), 10-15.
9. Uzoqov, B. (2022). GLOBALLASHUV JARAYONLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(12), 347-350.
10. Uzokov, B. (2022). ALISHER NAVOIYNI ANGLASH FALSAFASI. *RESEARCH AND EDUCATION*, 262.
11. Uzoqov, B., & Xidirov, X. I. (2022). KORRUPSIYANING KELIB CHIQISHI, MAZMUN-MOHİYATI, UNGA QARSHI KURASHISHNING DOLZARB MASALALARI. *Ekonomika i sotsium*, (9 (100)), 654-657.
12. Uzokov, B. (2022). HISTORICAL WORLDVIEW AS A CRITERION OF NATIONAL IDENTITY. In *KULTURNOE NASLEDIE I NARODNOE ISKUSSTVO: SOXRANENIE I AKTUALIZATSIYA V SELYAX USTOYCHIVOGO RAZVITIYA OBIESTVA* (pp. 308-314).
13. Uzokov, B. (2022). RESPONSIBILITY OF PARENTS AND CHILDREN IN FORMING A HEALTHY FAMILY ENVIRONMENT. *Scientific progress*, 3(6), 27-30.
14. Uzokov, B., & Mamanazarov, S. I. (2019). NAVOYONINGSKAYA SESSIYA-FILOSOFIYA KARASHLARI. *Aktualnye nauchnye issledovaniya v sovremenom mire*, (1-1), 141-144.
15. Uzokov, B., & Mamanazarov, S. I. (2019). ZNACHENIE V NASTOYAYEE VREMYA SOTSIALNO-FILOSOFSKIX UCHENIY ODNOGO IZ MYSLITELEY SENTRALNOY AZII, V CHASTNOSTI ABU NASR FARABI O SPRAVEDLIVOM OBIESTVE. *Aktualnye nauchnye issledovaniya v sovremenom mire*, (1-1), 137-140.
16. Uzoqov, B. (2023). YOSHLAR MA'NAVİYATINI YUKSALTIRISH-DOLZARB VAZIFA SIFATIDA. *Ekonomika i sotsium*, (1-2 (104)), 525-528.
17. Рашидова, Б. Я. (2024). ТАЪЛИМ-ТАРБИЯ ҚАНЧА МУКАММАЛ БЎЛСА, ХАЛҚ ШУНЧА БАХТЛИ ЯШАЙДИ. *Educational Research in Universal Sciences*, 3(1), 464-469.
18. Рашидова, Б. (2022). ЮКСАК МАЪНАВИЯТ АВВАЛО ИНСОН ОДОБИДА НАМОЁН БЎЛАДИ. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(12), 351-355.
19. Yaxyaevna, R. B., & Nurbek, A. (2023). MA'NAVİYAT JAMIYAT HAYOTINING JONI VA RUHI. In " ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM (Vol. 1, pp. 503-506).